

## TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020-yil 1-avgust holatigako‘ra  
(fermer va dehqonxo‘jaliklaridantashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.



## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

30 180



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 803



Oilaviy korxonona

237



Unitar korxonona

8 148



Xususiy korxonona

56




Aksiyadorlik jamiyati

530




Boshqa korxonalar

*mas'uliyaticheklanganjamiyat  
mingbirlik*



*xususiy korxonona  
mingbirlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatimas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgankorxonona va tashkilotlar soni (1-avgust holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida, ming birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020-yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yilning yanvar-iyul oylarida 4 850 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3 581 ta, xususiy korxonalar – 430 ta, oilaviy korxonalar – 704 ta, muassasalar – 35 ta va boshqalar – 135 tani tashkil etdi.



## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (1-avgust holatiga ko‘ra)



## Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda)




2020-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 8 101 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko‘payishining asosiy omili – (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 115,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,0 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 127,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,0 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 150,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 110,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,2 %) o‘shidir.



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 372 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 119,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 54,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 140,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 138,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 38,5 %) o'sishidir.


## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 11,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,6 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 135,2 % ga (jami savdodagi ulushi 69,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 125,9 % ga (jami savdodagi ulushi 23,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 131,0 % ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



## Oilaviy korxonalar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-avgust holatiga ko'ra 3 803 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 379 taga yoki 156,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 386 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 237 taga yoki 157,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 704 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105 taga yoki 117,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, 30 180 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 629 taga yoki 122,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 26 671 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 138 taga yoki 123,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 581 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 847 taga yoki 80,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 1 404 tani tashkil etib, ulardan 1 268 tasi yoki 90,3 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 247 taga yoki 124,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 95 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)





## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017–2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



## Korxonalar va tashkilotlarning yagonadavlat registri



The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. A navigation menu includes 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The 'INTERAKTIV XIZMATLAR' section is active, showing a dropdown menu with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form titled 'STIR kodini kiriting'. The form contains a large input field for the code, a smaller field for 'Rasmdagi kodni kiriting', and a 'Qidiruv' button. A note says 'Kodni yangilash uchun rasimga bosing'. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' categories like 'E'lon qilish taqvim', 'Metama'lumotlar', 'Makro'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relijar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqifoydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**  
**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71 202-86-83**

